

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limining
2024-yil I-yarim yillik
ISH REJASI

№	BELGILANGAN TADBIRLAR NOMI	Belgilangan vazifalarni ijro muddati	Ijro uchun mas’ullar
1.	Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limining ish rejasini tayyorlash va tasdiqlash.	2024 yil yanvar	Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi
2.	O‘zbekiston davlat konservatoriyasi vab-saytida bo‘limning ish rejasini joylashtirish. “Ta’lim sifati”ni yaxshilash bo‘yicha turkum maqolalar va axborot tusiga ega bo‘lgan musiqa san’ati sohasidagi ta’lim sifatini yaxshilashga qaratilgan axborotlarni kiritib borish. Musiqa ta’limini rivojlantirishga qaratilgan fikr-mulohazalar tahlilini olib borish va tegishli takliflarni o‘rnatilgan tartibda O‘zDK rahbariyatiga (Kengashiga) kiritish.	2024 yil yanvar	Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi xodimlari, ATM bo‘limi
3.	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va sohaga oid boshqa normativ -huquqiy hujjatlar ijrosi yuzasidan 2023 yilning 6 -17 noyabr kunlari o‘tkazilgan o‘rganish jarayonida aniqlangan Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat berayotgan shart-sharoitlarni tezkor xolatda bartaraf etish bo‘yicha tasdiqlangan CHORA - TADBIRLAR REJASIda belgilangan vazifalarni ijrosini mas’ullar tomonidan	2024-yil I-yarim yillik	Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi xodimlari, tegishli mutasaddilar

	bajarilishini monitoring qilib borish.		
4.	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 2024-yilgi Davlat dasturi doirasida ta'lim sifatiga tegishli bo'lgan vazifalar ijrosini amalga oshirish.	2024-yil I-yarim yillik	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. MIRZIYOEV raisligida 2023-yil 22- dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida musiqa sohasida kadrlar tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan vazifalarni tegishlilikiga ko'ra ijrosini ta'minlash.	2024-yil I-yarim yillik	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
6.	O'zbekiston davlat konservatoriyasining 2030 yilgacha bo'lgan istiqbol "Yo'l xaritasi"da o'quv jarayoniga va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan vazifalarni o'z ijro muddatlarida amalga oshirish.	2024-yil I-yarim yillik	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, O'quv-uslubiy bo'lim va fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
7.	O'zDK professor-o'qituvchilarning shaxsiy ish rejalarning o'quv yili birinchi yarimda belgilangan o'quv soatlarning bajarilishini o'rganish. O'rganish natijalarini rektorga taqdim etish.	2024 yil fevral	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, Fakultet dekanlari, O'quv-uslubiy bo'lim.
8.	Konservatoriyaning moddiy-texnik bazasini o'rganish (kafedralar kesimida). O'quv jarayonlarining moddiy-texnik bazasini yanada takomillashtirish bo'yicha tegishli takliflarni tayyorlash, ularni rektorga (Kengashiga) taqdim etish	2024 yil mart	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, O'quv-uslubiy bo'lim, Ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi, Reja moliya bo'limi va kafedra mudirlari
9.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi orqali yuborilgan buyruq, hay'at qarorlari, xatlarni http://infox.edu.uz/ portali orqali tezkor ravishda olish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	Muntazam ravishda, yil davomida	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, va fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
10.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan ta'lim sifatini oshirishiga doir hujjatlarda keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlash.	Muntazam ravishda, yil davomida	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi


11.	Konservatoriya ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasini ARM va kafedralar (fanlar) kesimida o'rganish	2024 yil mart	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, ARM xodimlari, O'quv- uslubiy bo'lim
12.	O'zDK professor-o'qituvchilari, doktorantlar va talabalar tomonidan olib boriladigan ilmiy-ijodiy ishlarining natijalari yuqori impakt-faktorga ega bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilishi va iqtiboslik holatlarini o'rganish.	2023/2024 o'quv yili 2-semestr davomida	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, Ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi va kafedra mudirlari
13.	O'zDK professor-o'qituvchilar tomonidan olib borilayotgan o'quv mashg'ulotlar, talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida olib borilayotganligini o'rganish.	2023/2024 o'quv yili 2-semestr davomida	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, O'quv-uslubiy bo'lim, Ilmiy -pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi va kafedra mudirlari
14.	O'zDK professor-o'qituvchilar tomonidan dars mashg'ulotlarining o'tkazilish holatini tahliliy o'rganish	2023/2024 o'quv yili 2-semestr davomida	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, O'quv bo'limi
15.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorida belgilangan vazifalarni tegishligiga ko'ra ijrosini nazoratga olish.	2024-yil 1-yarim yillik	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
16.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 8 avgust PQ-3178-sonli qarorida berilgan vazifalarni tegishligiga ko'ra ijrosini ta'minlash.	2024-yil 1-yarim yillik	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
17.	Mavjud ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarning o'ziga xos jihatlarini inobatga olgan holda talabalar bilimni baholashning	2024 yil yanvar –fevral	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, O'quv –uslubiy bo'lim,

	zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullarini, shu jumladan, muayyan fandan dars bergan pedagogning yakuniy nazorat jarayonlaridagi ishtirokini istisno etilganlik holati o'rganiladi.		Ichki nazorat va monitoring bo'limi
18.	Kadrlar iste'molchilarining fan dasturlari va bitiruvchilar malakasi bo'yicha fikr - mulohazalarini o'rganish.	2024 yil fevral-mart	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari va Marketing xizmati bo'limi xodimlari
19.	Kafedralarda mustaqil ta'limni tashkil etilganligini o'rganish	2024 aprel-may	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari. O'quv-uslubiy bo'lim va
20.	Mutaxassislik fanlarining chet tilida o'qitilishi holatini va uning O'zDK bo'yicha salmog'i va sifatini o'rganish.	2024 yil yanvar	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, O'quv-uslubiy bo'lim va Kasaba uyushmasi raisi
21.	O'zbekiston davlat konservatoriyasida tahsil olayotgan iqtidorli (Respublika va xalqaro musiqa tanlovlari g'oliblari) talabalar bilan olib borilayotgan ishlar holatini o'rganish. Iqtidorli talabalar haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish.	2024 yil yanvar	Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi xodimlari, Fakultet dekanlari, Ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi, Ma'naviyat va iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi hamda "Yoshlar ittifoqi"
22.	Bakalavriatura 1, 2, 3 (4) - kurs talabalarining yozgi o'quv tanishuv, ishlab chiqarish va malakaviy amaliyoti va bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy hamda 2-kurs magistratura talabalarining malakaviy amaliyotini samarali tashkil etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni o'rganish (bunda talabalar amaliyotini ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklardan kelib chiqib rejalashtirilganiga e'tibor qaratiladi)	2024 yil yanvar -may	TSNQB xodimlari, Ekspertlar guruhi, Amaliyot bo'limi
23.	Professor-o'qituvchilar shaxsiy ish rejalarining o'quv yili yakunlari bo'yicha bajarilishini o'rganish. Aniqlangan kamchiliklarni umumlashtirish, ma'lumotnoma tayyorlash rektorga taqdim etish.	2024 yil iyun	TSNQB xodimlari, ishchi guruh a'zolari

24.	Ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini bitiruvchi talabalarning bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarining shaxsiy rejalar asosida bajarilishini nazorat qilish.	2024 yil aprel-may	TSNQB xodimlari, Ekspertlar guruhi, Fakultet dekanlari, mutaxassislik kafedra mudirlari
25.	2023-2024 o'quv yili bakalavriat (magistratura) bitiruvchilari uchun o'tkaziladigan YaDA (DAK) faoliyatiga tayyorgarlikning borishini, ushbu jarayonning amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda qo'yilgan talablar asosida sifatli tashkil etilishi va o'tkazilishiga qaratilgan faoliyatni nazoratga olish	2024 yil may-iyun	TSNQB xodimlari, Ekspertlar guruhi, Fakultet dekanlari, Kafedra mudirlari
26.	Ish beruvchi madaniyat va san'at tashkilotlari, muassasalari hamda konsert tashkilotlari mas'ul xodimlari bilan hamkorlikda majburiy fanlar va tanlov fanlari blokidagi barcha fanlarni qayta ko'rib chiqish.	2024 yil iyun	TSNQB xodimlari, O'quv bo'limi, Mutaxassislik kafedralari

Izoh: Ushbu ish rejaga o'quv yili davomida yuqori tashkilotlardan kelgan vazifalar ijrosiga ko'ra qo'shimchalar kengash qaroriga ko'ra kiritilishi mumkin.

**Ta'lim sifatini nazorat qilish
bo'limi boshlig'i**



dotsent A. Norbekov
4.01.2024